

eWIC KARTAM YORDAMIDA XARIDLAR QILISH

Quyidagi hollarda WIC yordamida ayrim oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qila olmasligingiz mumkin:

- ✓ oziq-ovqat mahsuloti oilangizning WIC dasturi bo'yicha imtiyozlariga kirmasa
- ✓ imtiyozingiz vaqti tugagan bo'lsa
- ✓ oziq-ovqat mahsuloti WIC tasdiqlagan ro'yxatda bo'lmasa

WIC ro'yxatida bo'lmagan mahsulotlarni ham bir vaqtning o'zida xarid qilishim mumkinmi?

Ha. Dastlab eWIC kartangizdan foydalaning. So'ngra boshqa narsalar uchun boshqa usulda to'lang. SNAP, hadya kartasi, naqd pul yoki debet kartasidan foydalaning.

Agar men WIC dasturi tasdiqlagan ro'yxatda biror WIC oziq-ovqat mahsuloti yetishmayotganini ko'rsam, nima qilishim kerak?

Agar WIC'ning "Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha qo'llanma"da ko'rsatilgan biror taom WIC tasdiqlagan ro'yxatga kiritilmay qolgan deb o'ylasangiz:

- ✓ do'kon xodimlari bilan gaplashing
 - ✓ WIC'ning mahalliy idorasi vakillari bilan gaplashing;
 - ✓ <https://nyswicvendors.com> saytiga kiring
- Oziq-ovqat mahsulotining WIC tasdiqlagan ro'yxatga kiritilishi kerakligi yoki yo'qligi haqida so'rang.

WIC tasdiqlagan do'konni qanday topsam bo'ladi?

- ✓ **WIC2Go** mobil ilovasidan foydalaning
- ✓ WIC'ning mahalliy idorasidan so'rang
- ✓ Quyidagi saytga kiring: www.health.ny.gov/wic
- ✓ Quyidagi saytga kiring: www.nyswicvendors.com

WIC mahsulotlari bo'yicha xaridimni boshqa birov qilib berishi kerak bo'lsa, nima qilaman?
eWIC kartangiz va PIN-kodingizni FAQAT ishonchli odamlarga bering.

eWIC KARTAMNI EHTIYOT QILIB SAQLASH

eWIC kartam yo'qolib qolsa, o'g'irlansa yoki shikastlansa, nima qilaman?

WIC mijozlarga xizmat ko'rsatish markazining quyidagi telefon raqamiga qo'ng'iroq qilish orqali kartangiz amalda bo'lishini bekor qiling: **1-844-540-3013**. Yangi karta olish uchun mahalliy idorangizda qabul vaqtini belgilang.

Qanday qilib eWIC kartamni ehtiyot qilib saqlasam bo'ladi?

QILING:

- ✓ Kartangizni ehtiyot qilib saqlang. Undan har oy foydalanasiz.
- ✓ Kartangizni xavfsiz va toza holda saqlang
- ✓ Uning orqa tomonidagi qora polosani tirnalmagan holda saqlang

QILMANG:

- ✓ Barcha imtiyozlardan foydalanib bo'lgach, kartani tashlab yuborish. Siz ayni kartadan har oy foydalanasiz
- ✓ Kartani magnit yoki mobil telefon kabi elektr jihozlari yaqinida saqlash
- ✓ Kartani quyoshda yoki avtomobil boshqaruv paneli kabi boshqa issiq joylarda qoldirish

Qachon mijozlarga xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qilsam bo'ladi?

- ✓ eWIC kartangiz yo'qolgan yoki o'g'irlangan bo'lsa
- ✓ eWIC kartangiz ishlamay qolsa
- ✓ Kimdir ruxsatingizsiz eWIC kartasidan foydalanayotgan bo'lsa
- ✓ Sizga WIC imtiyozlari balansi yoki amal qilish muddati kerak bo'lsa
- ✓ PIN kodni unutib qo'ysangiz
- ✓ PIN kodni qayta o'rnatmoqchi bo'lsangiz
- ✓ Sizga eWIC kartangiz bilan bog'liq yordam kerak bo'lsa

Ushbu muassasa teng imkoniyatlar taqdim etuvchidir.

NYU-YORK SHTATI eWIC KARTASI BO'YICHA QO'LLANMASI



MENING eWIC KARTAM VA PIN KODIM

eWIC karta nima degani?

Siz bu karta yordamida WIC tasdiqlagan oziq-ovqat mahsulotlarini WIC do'konlaridan xarid qilishingiz mumkin. Mahalliy WIC idorangiz kartangizga oilangiz imtiyozlarini qo'shadi.

PIN kod nima degani?

PIN kod shaxsiy identifikatsiya raqamini anglatadi. U WIC kartangizdan foydalanishingizga imkon beradigan 4 ta raqamdan iborat maxfiy koddir. WIC kartangizni faollashtirayotganda, siz PIN kodingizni tanlaysiz.

PIN kodimni qanday olsam bo'ladi?

eWIC kartangizni faollashtirish va PIN kod o'rnatish uchun mijozlarga xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qiling: **1-844-540-3013**. Quyidagilarni bilishingiz kerak:

- ✓ 16 ta raqamli eWIC kartasi kodi
- ✓ pochta manzilingiz pochta indeksini
- ✓ tug'ilish sanangiz

PIN kodimni qanday tanlasam bo'ladi?

O'zingiz eslab qolishingiz oson, lekin boshqalar topishi qiyin bo'lgan 4 ta raqamli PIN kodni tanlang.

Qanday qilib PIN kodimni xavfsiz saqlashim mumkin?

- ✓ Hech kim kuzatib turmaganiga ishonch hosil qiling
- ✓ eWIC kartangiz ustiga PIN kodingizni yozmang
- ✓ PIN kodni hamyon yoki qopchiqda saqlamang

PIN kodimni unutib qo'ysam, nima bo'ladi yoki uni qayta o'rnatishim kerakmi?

Mijozlarga xizmat ko'rsatish markazining quyidagi telefon raqamiga qo'ng'iroq qiling: **1-844-540-3013** yoki quyidagi veb-saytga kiring: **www.EBTedge.com**. Tug'ilish sanangiz va pochta manzilingizning pochta indeksini bilishingiz kerak bo'ladi.

Men do'konda noto'g'ri PIN kodni kiritsam, nima bo'ladi?

Siz bu ishni to'g'ri bajarish uchun yana 3 ta imkoniyatga egasiz. Agar 4-urinishda xato qilsangiz, hisobingiz bloklanadi. Kartangizdan ertangi kunga qadar foydalana olmaysiz. Yoki mijozlarga xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qiling. Ular PIN kodingizni qayta o'rnatib beradi.

eWIC KARTAMNING IMTIYOZLARI

WIC hisobim bo'yicha imtiyozlarni qanday olsam bo'ladi?

WIC xodimlari bilan uchrashganingizda, ular imtiyozlaringizni WIC hisobingizga qo'shadi. Keyingi uch oy davomida oilangizga tegishli WIC dasturi bo'yicha imtiyozlar ro'yxatini olasiz. Ro'yxatda imtiyozlaringizning boshlanish va tugash sanalari bo'ladi.

Barcha WIC imtiyozlarimni bir vaqtda sotib olishim kerakmi?

Yo'q. Siz WIC dasturi bo'yicha beriladigan oziq-ovqat mahsulotlarini ehtiyojigizga qarab xarid qilishingiz mumkin.

eWIC kartamdan ko'p marta foydalanish mumkinmi?

Ha. eWIC kartangizni saqlab qo'ying va barcha belgilangan uchrashuvlarga olib boring.

WIC imtiyozlarimning qoldig'i va amal qilish muddatini qanday bilsam bo'ladi?

Ushbu ma'lumotni olishingizning 5 ta yo'li bor:

- ✓ **WIC2Go** mobil ilovasi
- ✓ do'kondan olgan so'nggi chekingiz
- ✓ do'koningizning xizmat ko'rsatish bo'limiga boring
- ✓ Mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'limiga qo'ng'iroq qiling: **1-844-540-3013**
- ✓ quyidagi veb-saytga kiring: **www.EBTedge.com**

Imtiyozlarim bo'yicha savolim bo'lsa, nima qilaman? Imtiyozlarimni yoki chaqalog'imning ovqatlanish formulasini o'zgartirishim kerak bo'lsa, nima qilishim kerak?

WIC mahalliy idorasi xodimlaridan imtiyozlaringizni yoki chaqalog'ingiz uchun sut aralashmasini o'zgartirish to'g'risida so'rang.

WIC2Go nima degani?

WIC2Go Nyu-York shtatidagi WIC dasturi ishtirokchilari uchun mobil ilovadir. WIC2Go sizga quyidagi holatlarda yordam berishi mumkin:

- ✓ Uchrashuvlaringiz ro'yxatini tuzish
- ✓ Joriy oydagi qoldiqni va amal qilish muddatini tekshirish
- ✓ Mahsulotlarni WIC dasturi uchun tasdiqlangan yoki yo'qligini bilish uchun ularni skanerlang **WIC2Go** ilovasini Apple App Store yoki Google Play orqali yuklab olishingiz mumkin.

eWIC KARTAM YORDAMIDA XARIDLAR QILISH

Xarid qilayotganingizda, eWIC kartangizdan qanday foydalanish kerakligi haqida ma'lumot:

Qadamlar bir do'konda boshqa do'kondagidan farq qilishi mumkin.

1. WIC xarid ro'yxatingiz, imtiyozlar qoldig'ingiz, "Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha qo'llanma" va WIC2Go ilovasidan foydalanib, WIC mahsulotlarini tanlang.
2. WIC kartasi qabul qilinadigan kassa qatorini tanlang.
3. WIC mahsulotlarini boshqa oziq-ovqat mahsulotlaridan oldin joylashtiring.
4. Foydalanilgan WIC imtiyozlarini tasdiqlash uchun o'rtadagi tranzaksiya chekini tekshiring.
5. eWIC kartangizni surib o'tkazing va 4 ta raqamli PIN kodingizni kiriting. PIN kodingizni do'kon xodimlariga aytmang
6. WIC dasturiga kirmaydigan mahsulotlar uchun boshqa to'lov usulidan foydalaning.
7. Do'kon cheki va eWIC kartangizni keyingi xarid safari uchun saqlab qo'ying.

